

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O‘QITISHNING YANGI USULLARI

Xamraqulova Gulmiraxon

Andijon tumani 71-IDUM mактабининг ingliz tili fani o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ingliz tili butun dunyoda mashxur, ommaviy til sifatida rivojlanib kelmoqda. Shu sababli uni o‘rganuvchi yoshlар kundan kunga ko‘paymoqda. Ushbu maqolada ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun o‘qitishning samarali, zamonaviy va innovatsion metodlari haqida to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: yangi innovatsion metodlar, qiziqarli o‘yinlar, turli xildagi rag‘batlantirish usullari, og‘zaki nutqni rivojlantirish

Insoniyat tarixida 21-asr ilm-fan, texnika rivojlanish asri hisoblanadi. Bu asrda turli xil yangiliklarni o‘rganishga, qabul qilishga, almashishga va izlanishga bo‘lgan qiziqish tobora ortgani sayin xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan talab ham yuqorilab bormoqda. Xorijiy til xususan ingliz tilini o‘rganish nafaqat oliyohlar balkim mакtab va bog‘cha yoshidagi o‘quvchilar o‘rtasida ham keng miqiyosda yoyilib bormoqda. Ingliz tilining takomillashib borishida O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-1875-sonli qaror asosida chet tillarini, asosan, ingliz tilini o‘rganish umumiyligi o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinflaridan o‘yin tarzidagi darslar va og‘zaki nutq darslari shaklida, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, o‘qish va grammatikani o‘qitish bosqichma-bosqich boshlanadi deb belgilanishning o‘zi tilni o‘rganish uchun katta asos sifatida olingan.

Xorijiy tillarni o‘rganish va o‘rgatishning ilk qadami mamlakatimiz ta’lim dargohlarida xorijiy tillar xonalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va o‘qitishning ilg‘or texnik vositalari bilan jihozlash, teleradiokanallarda bolalar va o‘smirlarni xorijiy tillarga o‘rgatuvchi ko‘rsatuv va eshittirishlarni berib borish, boshqa mamlakatlar tarixi va madaniyati, jahon ilm-fani va texnik yangiliklariga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop xorijiy badiiy va multiplikatsion filmlarni o‘zbekcha subtitr yordamida muntazam namoyish etish yoshlарimizga dunyo xalqlarining o‘tmishi, madaniyati, ilm-fani bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Xususan bunda ularning so‘z boyliklari ko‘paytirib nutqi rivojlanishida ham katta yordam bo‘ladi. Chet tillarini o‘qitishda o‘quvchilar asosan **Visual, Kinesthetic, Auditory** kabi o‘rganuvchilarga bo‘linadi.

Visual usulida o‘rganuvchi o‘quvchilar- bu vizual shaklda taqdim etilganda, ma’lumotni yanada samarali o‘rganadigan va saqlaydigan o‘quvchilar hisoblanadi. Vizual o‘quvchilar ma’lumotni o‘zlashtirish uchun tasvirlar, diagrammalar, grafiklar va videolar kabi vizual belgilarga tayanadilar. Ular ma’lumotni eshitish yoki boshqa hislar orqali his qilishdan ko‘ra ko‘rishi afzal biladilar. Bu usulda o‘rganuvchi o‘quvchilar uchun mavzuga oid rasmlı kartochkalar, “**animals**” mavzusini o‘tilayotgan bo‘lsa shu darsga oid bo‘lgan bo‘yash uchun mo‘ljallangan tarqatma materiallaridan foydalanish darsni shu usulda o‘rganuvchilar uchun qiziqarli bo‘lishiga yordam beradi. Vizual o‘quvchilar rasm yoki tasvirlarda eng yaxshi fikr yuritadilar. Ular mavzuning turli tomonlarini yaxshiroq tushunish va o‘rganish uchun ushbu tasvirlarni aqliy ravishda "ko‘rishlari" va boshqarishlari mumkin. Vizual usulga ingliz tili yangi kitobimiz “**Guess what**” dagi rasmlı mavzularni misol tariqasida olishimiz mumkin. “**Family**” mavzusida oila a’zolari rasmlari keltirilgan va pastgi qismida nomlari bilan yozilgan, bu ham rasm orqali ularning nomlarini yodlash uchun katta imkon yaratadi. Shu bilan bir qatorda ushbu kitobning videolar jamlanmasi orqali ham vizual usulda o‘rganuvchi o‘quvchilarga mavzuni osonroq tushuntirish mumkin bo‘ladi.

Kinesthetic usulida o‘rganuvchi o‘quvchilar – “Taktik” yoki “qo‘lda” harakat va teginish orgali o‘rganishni afzal ko‘radi. Kinestetik ta’lim uslubiga ega bo‘lgan o‘quvchilar, tabiiy ravishda, o‘rganish paytida tana a’zolarini harakati bilan tushunishni boshlashadi, ma’lumotni samarali tushunish va saqlash uchun teginish hissi, vosita qobiliyatlari va jismoniy sezgilaridan foydalanadilar. Kinestetik o‘rganuvchilar jismoniy faoliyatga yuqori talabga ega va uzoq vaqt davomida harakatsiz qolishlari mumkin. Ular gapirganda yoki tushunchalarni tushuntirishda ko‘pincha qo‘l imo-ishoralaridan foydalanadilar. Ular o‘qish yoki fikr yuritish paytida xonani aylanib chiqishadi yoki oldinga va orqaga qadam tashlashadi. Bunday holat ko‘pincha boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida juda ko‘p uchraydi. Ko‘pchilik o‘qituvchilar bu harakatlarga salbiy baho berishadi, sababi bu o‘rganish usuli orqali boshqa o‘quvchilarga noqulayliklar tug‘dirishadi deb hisoblashadi. Dars davomida shunday vaziyatlarni oldini olish va darsni boshqara olish o‘qituvchining zimmasiga tushadi. Bunda harakatli o‘yinlar juda yaxshi qo‘l keladi. Misol uchun: o‘quvchilar uchun yumshoq to‘plar orqali ular yod olgan so‘zlarini o‘qituvchi tomonidan inglizcha yoki uning o‘zbekcha ruscha nomlar bilan aytib o‘quvchiga otiladi va o‘quvchi uni to‘g‘ri aytish orqali o‘yinda o‘rnini saqlab qoladi. Bundan tashqari “**Jobs**” mavzusida kichik bo‘lakli qattiq qog‘ozlarni ikki guruhga ajratib bo‘lib olib birinchi guruhiga inglizchga nomini, ikkinchi guruhga o‘zbekcha nomini yozib aralashtirib qo‘yiladi va o‘quvchi uni nomlarini o‘rniga qo‘yish orqali yangi o‘yindan ham so‘zlarini mustahkamlab o‘rganadi, ham harakatlanish orqali zerikib qolmaydi.

Auditory usulida o‘rganuvchi o‘quvchilar – Ushbu turkumga kiruvchi o‘quvchilar boshqa turdagи o‘quvchilarga qaraganda farq qilishadi. Ular kuchli tinglash qobiliyatiga ega, ularga og‘zaki so‘zlar orqali taqdim etilgan ma’lumotlar bilan faol shug‘ullanish va o‘zlashtirish imkonini beradi, og‘zaki tarzda olib boriladigan muhokamalar, tushuntirishlar va ko‘rsatmalardan zavqlanishadi. Ular tez-tez mnemonik texnikalar, qisqartmalar, qofiyalar kabi xotirani saqlash va eslab qoladiganlardan foydalanishadi. “**Guess what**” kitobimizda ushbu turdagи o‘quvchilarimiz uchun o‘tilayotgan mashqlarda “listening” ya’ni eshitish orqali o‘rgatish qismlari ham mavjud.

Xulosa qilib aytganda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ingliz tili faniga qiziqtirib o‘rgatishdan oldin sinfdagi o‘quvchilarning qancha qismi yuqorida ta’kidlangan qaysi usulga mos kelishini o‘qituvchi o‘rganib shunga oid qiziqarli didaktik o‘yinlardan foydalanib o‘ynatsa,mavzudan kelib chiqqan holda tarqatma materiallardan keng ko‘lamda foydalansa dars mazmunli hamda o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘ladi. Bu orqali mamlakatimiz rivoji uchun yetuk mutahasis yetishtirilib,nutqi ravon o‘quvchila tarbiyalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora -tadbirlari to‘g‘risida (PQ-1875-son)IXalq so‘zi gazetasi. 2012yil. 12-dekabr.
2. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 368 b.
- 3.Zaripova R.A. Chet tillar o‘qitish metodikasidan qo‘llanma. Toshkent: ‘O‘qituvchi, 1986. – 184 b.
4. Penny Ur. “Classroom dynamics and management” Oxford University press. 1990
5. <https://ahaslides.com/uz/blog/visual-learner/>